

SHOTA RUSTAVELI VA O‘ZBEK ADABIYOTI

Ergash OCHILOV,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim mudiri, filologiya fanlari nomzodi, professor

Э-маил: э-очилов@маил.ру

Тел: +998946204764

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677222>

Аннотация. *Maqolada buyuk gruzin shoiri va mutafakkiri Shota Rustaveli hayoti va ijodining O‘zbekistonda o‘rganilishi, “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon”ning o‘zbek tilidagi tarjimalari va nashrlari, asardagi sharqona ruh va motivlar hamda ularning Alisher Navoiy dostonlari bilan mushtarak jihatlari xususida fikr yuritiladi.*

Калит so‘zlar: *Shota Rustaveli, “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon”, Alisher Navoiy, doston, tarjima, tarjimon, an‘ana, ta‘sir, qahramon, badiiy san‘atlar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы изучения жизни и творчества великого грузинского поэта и мыслителя Шота Руставели в Узбекистане, переводы и издания поэмы «Витязь в тигровой шкуре» на узбекском языке, а также восточный дух и мотивы произведения и их общие черты с поэмами Алишер Навои.*

Ключевые слова: *Шота Руставели, «Витязь в тигровой шкуре», Алишер Навои, поэма, перевод, переводчик, традиция, влияние, герой, художественные средства.*

Annotation. *The article examines the study of the life and works of the great Georgian poet and thinker Shota Rustaveli in Uzbekistan, the Uzbek translations and editions of The Knight in the Panther’s Skin, as well as the Eastern spirit and motifs of the work and their common features with the epics of Alisher Navoi.*

Key words: *Shota Rustaveli, The Knight in the Panther’s Skin, Alisher Navoi, epic poem, translation, translator, tradition, influence, hero, artistic devices.*

Jahon adabiyoti durdonalaridan hisoblangan “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asari muallifi, gruzin adabiyoti va yangi gruzin tili asoschisi Shota Rustaveli XII asrning 60-yillarida tug‘ilgan. U Tamara va eri David Soslani Gruziyada hukmronlik qilgan vaqtda davlat xazinachisi bo‘lgan.

Boy qadimiy madaniyatga ega Gruziya XII asrda – David Bunyodkor (1089 – 1125), Georgiy III (1156 – 1184) va Tamara (1184 – 1213) davrida siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan o‘zining yuksak taraqqiyot cho‘qqisiga chiqqan edi. “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostoni Tamara va David hukmdorligi zamonida – 1189 – 1207-yillarda yaratilgan [1,3].

Dostonda do‘stlik, muhabbat, vatanparvarlik, mardlik, sadoqat, halollik, oliyjanoblik kabi azaliy va abadiy mavzular yuksak mahorat bilan tarannum etilgan. Ikkiyuzlamachilik, riyokorlik, qo‘rqoqlik, tamagirlik, zulmu zo‘rluk kabi illatlar esa keskin qoralangan. Shoir umuminsoniy “g‘oyalarni birinchi o‘ringa qo‘yib,

qahramonlar psixologiyasi, voqealar mohiyatini chuqur ocha bilgan. Qadim milliy madaniyat, folklorning eng yaxshi an'analarini o'zlashtirib, gruzin she'riyatini yuqori pog'onalarga ko'targan. Rustavelining poetik nutqi majoziyligi, hikmatlarga boyligi bilan ajralib turadi" [7, 393].

Shota Rustaveli XX asrning 30-yillaridayoq o'zbek xalqi orasida mashhur bo'lgan. Buyuk gruzin so'z san'atkori tavalludining 750-yilligi munosabati bilan "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostoni sobiq ittifoq davlatlari tillariga tarjima qilingani ma'lum. Bu jarayondan o'zbek adabiyoti ham chetda qolmay, Eminjon Abbos, G'afur G'ulom, Nasrullo Oxundiy, Madamin Davron, Shayxzoda, Mirtemirlar tomonidan mashhur asardan parchalar tarjima qilinib, 1937-yili to'plam holda chop etiladi. Jumladan, G'afur G'ulom "Arab podshohi Rostevan to'g'risida ertak", "Darijonning Tarielga yuborgan maktubi" kabi qismlarni tarjima qilgan [10,13 – 21]. Eminjon Abbos Balmontning rus tilidagi tarjimasidan foydalanib, Fotimaning Neston Darijonga yozgan maktubini o'zbekchalashtirgan. Tarjimon ruscha tarjimaga monand she'r shaklini saqlagani holda Sharq she'riyati uchun xos bo'lgan ichki qofiyani ham yaratishga harakat qilgan (Darijon – jahon, hijron – jon).

Sen quyoshsan, o Darijon, sendan yorug' olar jahon,
Mushkul bo'ldi bizga hijron; hijroningda qiynalur jon.
Shirin suhbat – farosating yodimizga tushar har on,
Sening husning billur aro xuddi la'li Badaxshon.

Taniqli adabiyotshunos olim Sotti Husayn "Rustaveli tarjimasida haqida" nomli maqolasida [11] mazkur tarjimani har tomonlama keng va chuqur tahlil qilib, shu bahona badiiy tarjima haqidagi qarashlarini ham ilgari suradi va ulug' gruzin so'z san'atkori asarini shunday tarjima qilish kerakki, agar u o'zbek bo'lib, mazkur asarini o'zbek tilida yozganida shunday yozar edi deyish mumkin bo'lsin deb yozadi. Bu har bir tarjima o'zi o'girilgan tilda ham asliyatdagidek jaranglab chiqsin, original asardek ravon va ta'sirchan bo'lsin demakdir. U, shuningdek, "tarjimada istiora va majoziy so'zlarni oddiy o'xshatish bilan almashtirish hodisasini tanqid qiladi" [8,69].

"Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" asarini o'zbek tiliga ag'darishda ikki manbadan foydalanilgan: birinchisi – gruzin tilidan ruschaga o'girilgan satrma-satr tarjima (podstrochnik), ikkinchisi – rustavelishunos gruzin shoirlarining yordamidir.

Asar rus tiliga satrma-satr tarjima qilinganda, shubhasiz, uning hamma badiiy fazilatlarini to'liq aks ettirilmagan. Satrma-satr tarjimada qurbon qilingan ana shu xususiyatlarni asarning o'zbekcha tarjimasida tiklash uchun tarjimolarimizga yordam berish maqsadida, O'zbekiston hukumatining taklifiga muvofiq, Gruziyadan shoir K.Chichinadze kelgan.

1938-yil 21 fevralda Toshkentda Chichinadze ishtirokida “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonini o‘zbek tiliga ag‘dargan tarjimonlar bilan birgalikda maxsus kengash bo‘lib o‘tgan. Kengashda asarning o‘zbekcha tarjimasida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar jiddiy tanqid qilingan va gruzin xalqining atoqli shoiri Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonini o‘zbek tiliga tarjima qilish tadbirlari belgilangan” [8,69 – 70].

Yangi tarjima 1938-yili Nasrullo Oxundiy tahriri ostida dunyo yuzini ko‘radi. 1941-yili Madamin Davron tarjimasida “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostoni yangidan nashr qilinadi. Bu boradagi izlanishlar to‘xtamay, nihoyat 1959-yili asarning to‘liq tarjimasini Shayxzoda va Mirtemirlar tarjimasida bosilib chiqadi. [5] Bu nashr 1966-yilda qayta o‘quvchilar hukmiga havola qilinadi. Rus tilidagi tarjimalari ichida asliyatga eng yaqini hisoblangan taniqli gruzin shoiri va tarjimoni G.Sagareli tarjimasini o‘zbek tilidagi tarjima uchun asos qilib olingan. 2013-yili Ergash Ochilov tomonidan doston sujeti, voqealar rivojida uzilishga yo‘l qo‘ymagan holda ana shu tarjimaning bir qadar qisqartirilgan nusxasi “Jahon she‘riyati durdonalari” ruknida chop etildi [6].

Rustaveli arab va fors tillarini, Sharq adabiyotini chuqur bilgan. Dostonda u Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Faxriddin Gurgoniyning “Vis va Romin”, Nizomiy Ganjaviyning “Layli va Majnun” asarlari qahramonlari (Rustami Zol, Vis, Romin, Majnun)ni tilga oladi. “Vis va Romin” “Visramiani” nomi bilan gruzin tiliga nasriy tarjima ham qilingan edi. U Nizomiyning “Xusrav va Shirin”idan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Mavzuning Sharqdan olinganligi, voqealarning asosan Arabiston va Hindistonda kechishi, Xorazmshohlar haqida so‘z borishi (Hind shohi u bilan quda tutinmoqchi bo‘lgani) jihatidan asar sharqona ruhi va ohangi bilan alohida ajralib turadi.

Xoqon darrov noma yozdi Xorazmshoh nomiga,
“O‘g‘ling kelib ustun bo‘lsin davlatimiz tomiga,
Yolg‘iz qizim – vorisimdir, tojim unga qoladi,
Shahzodani yubora ko‘r, ko‘nglimiz shod bo‘ladi”.

Aftandil va Tinatin – Arabistondan, Taniel va Darijon – Hindistondan, Darijonni Xorazmshohning o‘g‘liga bermoqchi bo‘ladilar. Natijada asar sujet halqasida Arabiston – Hindiston – Xorazm uchligi vujudga keladi.

Qur‘oni karim, payg‘ambar ummati kabi diniy tushunchalar “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonining islomiy asosiga

Davom etar: “Savdogarmiz olis Bag‘dod shahridan,
Muhammadning ummatimiz, kechganmiz may bahridan, –
Navro‘z bayrami tasvirlari Eron bilan aloqadorligiga ishora qiladi:

Bizda shunday bir odat bor – kelsa Navro‘zi olam,
Savdogarlar do‘kon ochmas, safar qilmas hech odam,
Yasan-tusan qilar jami toifalar, urug‘lar,
Tobelarin saroylarga chorlashadi ulug‘lar.

Asar muqaddimasida shoirning o‘zi “Gurjistonga ko‘pdan beri ma’lum Sharq afsonasin”i qalamga olganligini ta’kidlaydi.

Gurjistonda ko‘pdan beri ma’lum Sharq afsonasin –
Mehr qo‘yib, pardoqlangan misralarga tizdim...

Sharq olamida keng tarqalgan afsona-ertaklar asosida yaratilgani uchun ham Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asari xuddi Sharq adabiyoti namunasiday o‘qiladi. Shoir o‘z dostonini Eronda mashhur fors ertagi asosida yozgan bo‘lsa ham, u aynan tarjima bo‘lmay, shoir muayan sujet asosida original asar yaratgan. Bugina emas. “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” Sharq adabiyotidagi dostonlar kabi masnaviy janrida yozilgan.

Jodugar Dovarning afsunlari ham sharqona motiv: ikki qora tanli Darijonni o‘g‘irlab, Kajeti degan jinlar qal’asiga olib ketadilar. Uch do‘st qizni shu qal’adan qutqaradilar. Xuddi Sharq xalq ertaklaridagiday “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” aslida uch pahlavon haqidagi asar. Avtandil, Tariel va Faridunni (Voqean, Faridun nomi ham bejiz tanlanmagan – u qadimgi Eronning adolat timsoli bo‘lgan peshdodiyalar sulolasiga mansub oltinchi hukmdor) o‘zaro yaqinlashtirgan va qiyomatli do‘stlarga aylantirgan kuch ham o‘zaro insoniy muhabbatdir. Bu kuchli va mustahkam do‘stlik ularga o‘z orzularini amalga oshirish, o‘z mahbubalariga erishish, mamlakatlarini dushman hujumidan saqlab qolishda katta yordam beradi. Do‘stlik ontiga sodiq kishilar bir-biridan nafaqat molini, balki jonini ham ayamaydi. Chunonchi, Avtandil do‘sti uchun yuksak mansabidan voz kechadi; jondan aziz sevgilisini hijron quchog‘iga tashlaydi; oilasidan, yurtidan uzilib, Tariel uchun yordamga shoshiladi, qadrdoni uchun o‘linga tikka boradi. Ayni jihatdan, “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” – muhabbat va do‘stlikka qo‘yilgan abadiy haykal.

G‘orda yashagan Tariel Layli hajrida xalqdan uzilib, biyobonni go‘sha tutgan va hayvonlar orasida yurgan Majnunga [4] o‘xshaydi: “Jonivorlar o‘rtasida Majnun kabi nolakor”. Ma’shuqasi Darijonning izini yo‘qotib qo‘ygan Tariel odam zotidan ko‘ngli sovib, kimsasiz g‘orni makon tutadi; tog‘- u biyobonlarda quyun kabi charx urib kezadi:

Lekin odam uchrab turgan o‘lkalarni tark etdim.
Bug‘ularning, kiyiklarning qirlariga jo‘nadim,
Daralarda, vodiylarda, qoyalarda tunadim.

Jannatda o‘sadigan To‘bo daraxti, sarv, shamshod, bazmi jamshid, yetti iqlim, la‘li Badaxshon kabi sharqona timsolu tashbehlar, mubolag‘ali tasvirlar ham sharqona adabiy an‘analar mahsuli. Mana, Avtandilning mahbubasi Tinatin ta‘rifi:

Sochlar – qatron, yonoq – billur, lablar – yoqut, tishlar – dur...

Sharq she‘riyatida ma‘shuqaning yuzi go‘zalligi va porloqligi jihatidan quyoshga, oyga tashbeh qilingan. Shota Rustaveli ham o‘z qahramonlari yuzini qayta-qayta oy va quyoshga nisbat beraveradi. Avtandil, Tinatin va Darijonga nisbatan quyosh yuzlik, oy chehralik kabi istioralar keng qo‘llanadi. Masalan, ko‘chadan o‘tib borayotgan Darijon haqida xalq shunday deydi: “Qaranglar-chi, quyosh ko‘kdan tushib, yerda yuribdi!” Yoki: “Quyosh qaytib kelishini kutsin bunda Oy hozir”. Bunda istiora sifatida Quyosh – Darijon, Oy – dengiz shahri shohi Surhaviy Malikning o‘g‘lini bildirib kelmoqda. Arg‘umoqqa mingan Tariel asov arslonga mingan quyoshga o‘xshatiladi: “Quyosh go‘yo mingan edi bu payt asov arslonga”. Bu tashbeh o‘z ohorlilik bilan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi oppoq kiyingan Shirinning qizil otga minishi shafaq uzra oyga qiyos qilinganini yodga soladi:

Keturdilar bu xingi bodpaymoy,

Ravon mindi shafaq Gulguniga oy [3,514].

Jinlarga asir bo‘lgan Darijon haqida esa: “Ajdahoning halqumiga tushgan edi to‘lin oy”, – deydi.

Rustavelining mubolag‘alari ham ko‘tarinki va favquloddaligi bilan Sharq shoirlarini esga soladi. Unda Sharq mumtoz so‘z san‘atiga xos badiiy san‘atlar, xususan, tashbeh, istiora, mubolag‘a, tazod, irsoli masal, majoziy tasvir usullariga ko‘p duch kelamiz. “Masalan, shoir “Aftandil egildi” deyish o‘rniga “qamish egildi” deydi. Xuddi shu kabi “bukilish”ni anglatuvchi “kipriklar yerga tegdi ma‘nosida “sarv egilib, ikki chodir yerga tushdi” deb beriladi” [4,69]. “Quyosh insonga aylanib, dilda ishq-alanga qo‘zg‘asa-da, sendan o‘zgani demayman!” – deb so‘z beradi Tinatin Avtandilga. “Men daydigan makonlarga yetolmas bulut hatto”, – deydi Avtandil Asmatga o‘zining uch yil mobaynida Tarielni izlab kechgan sarson-sargardonlikdagi hayoti haqida hikoya qilar ekan. Neston xususida “Jamolining shu‘lasidan quyosh bo‘lar betoqat”, – deb yozsa, Tarielning dard-u g‘amlari to‘g‘risida: “Bu jafoni toshlar ko‘rsa, erirdi allaqachon”, – deb mubolag‘a qiladi. G‘ordan olingan qilichni ta‘riflab: “Po‘latlarni naq qog‘ozday kesar edi beminnat”, – deb yozadi. Bu Farhod teshasining toshni sariyog‘day kesishi haqidagi mubolag‘ani yodga tushiradi. Bularning bari sharqona tashbehlar bo‘libgina qolmay, Sharq shoirlari ijodida ko‘p uchraganidan bir an‘ana tusini olgan.

“Majnun” ila “oshiq” so‘zi arablarda bir gapdek”, – deb yozgan Shota Rustaveli “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonini “Tarielni yig‘lab-yig‘lab kuyladi Rustaveli”, – deb yakunlaydi. Alisher Navoiy ham “Layli va Majnun” dostonini “yig‘lay-yig‘lay tugat”ganligini ta’kidlagan edi.

Ya’ni bu sifat firoqnoma,

Bo‘ldi manga qatraz xoma.

So‘gin nechakim uzattim oxir,

Yig‘lay-yig‘lay tugattim oxir [4,267].

Asarda Sharq adabiyotida keng uchraydigan sham va parvona timsollariga ham ko‘p duch kelamiz. Jumladan, Tariel Darijonga shunday qasamod qiladi:

Qur‘on oldim taxt ustidan, Neston boshi yonidan,

Dast ko‘tarib qasam ichdim Tangri va yor nomidan:

Ey quyosh qiz, parvonaman jamolingning shamiga,

O‘lmay turib bir so‘z aytay – g‘am qo‘shma dil g‘amiga.

Rustaveli Sharq shoirlari kabi osmon jismlaridan ham o‘z badiiy maqsadi yo‘lida mahorat bilan foydalanadi. Masalan, Nuriddin-Faridunni izlab, Mulkisangor sari borayotgan Avtandil yo‘lda mahubasi hajrida o‘rtanib, Quyoshga, oyga va barcha sayyoralarga murojaat qiladi va ularni Sharq nujum ilmida mashhur sifat-xususiyatlari bilan tilga oladi. Masalan, Zuhul (Saturn) nahs hisoblanib, baxtsizlik keltiruvchi sayyora hisoblanadi. Shuning uchun ham u ayni sayyoraga quyidagicha murojaat qiladi:

Zuhul, sen-ku shum yulduzsan, mayli, meni kuydirgin!

Yuragimni g‘amga chulg‘ab, zulmatlarga ko‘mdirgin!

Mushtariy (Yupiter) – Quyosh tizimidagi eng katta sayyora bo‘lib, o‘tmish munajjmlari uni muborak, saodatli deb ulug‘lab, Sa‘di akbar (baxt-u saodat keltiruvchi ulkan sayyora), Falak qozisi deb ataganlar. Shunga muvofiq, Avtandil deydi:

Haqqoniylik posboni, ey Mushtariy yulduzi,

Yuraklarda qaysarlik bor, o‘rtada bo‘l sen qozi!

Utorud (Merkuriy) – falak kotibi, munshiysi nomi bilan mashhur bo‘lib, ijod ahli – shoir-u yozuvchilarning homiysi, piri sifatida talqin qilingan. Avtandil arz-u dodida bu xususiyat ham hisobga olingan:

Ey Utorud, himoyachim! Daydiga qil iltifot!

Men quyoshning asiriman, kuymoqda dilim, hayhot!

Ko‘z yoshimni siyoh qilib tasvir et musibatim,

Senga qalam – nayqamishday chayqaluvchi qomatim!

Shu tariqa, jang-u muhoraba, fitnayu urush ramzi bo‘lib, kishilarga badbaxtlik keltiruvchi shum va bexosiyat sayyora Mirrix (Mars), falak sozandasi, go‘zallik, san‘at, musiqa, raqs, xursandchilik timsoli bo‘lgan sa‘di asg‘ar – baxt-u saodat keltiruvchi kichik sayyora – Zuhra (Venera) va boshqalar ham zikr etiladi.

“Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonida muallifning sharqona donishmandlik bilan omuxta teran falsafiy kuzatishlari va hikmatli so‘zlariga ham duch kelamiz. O‘zida shoirlar va mutafakkirlikni mujassamlashtirmagan kishi bunday badiiy yuksak va mazmunan teran asar yaratolmaydi. Zero, Shota Rustaveli zabardast so‘z ustasigina emas, o‘z davrining barcha ilmlarini egallagan qomusiy olim hamda olam va odam, tiriklik mohiyati, inson tabiatining ijobiy va salbiy qirralari haqida teran mulohaza yuritgan mutafakkir ham edi. Dostondagi ko‘plab bayt-u misralarning hikmat kabi, xalq maqollari kabi jaranglashi shundan. Bu hikmatlar ham sharqona ruhi bilan ajralib turadi. Jumladan, mana bu banddagi gul va bulbul, obi hayot (tiriklik suvi) timsollari shundan dalolat beradi:

Botir dedi: “Falokatda do‘stni qo‘ymoq ko‘p uyat.

Gul so‘lisa, bulbulni ham kutar yomon oqibat;

Shuning uchun bulbul uchib, izlar shifobaxsh shudring,

Yashash uchun yaxshi bilar obi hayotning qadrin.

Bu hikmatlar nekbinlik ruhi bilan yo‘g‘rilgani, yashashga, kurashga undashi, g‘amu tushkunliklarni yengib o‘tishga yo‘naltirishi bilan ikki karra ta‘sir kuchiga ega:

Badbaxtlikni yengadi baxt hamisha bu jahonda!

* * *

Deydilarki, jo‘mard odam baxt topgusi har qachon.

“Bu dunyoni tashlab ketsang, yetasanmi murodga?!” – deydi tushkunlikka tushib, o‘limini istab qolgan Tarielni sevgisi uchun kurashishga chaqirib Avtandil.

U hayot mohiyatini shunday tushuntiradi:

Bu dunyoning sevgisida sinov, zahmat ko‘ramiz.

Shum falakka bo‘yin egmoq odamzodga nomus-or...

Donishmand bo‘l! Hikmat bilan to‘siqlarni yeng tashla!

Er kishi mard bo‘lmog‘i shart: kam yig‘layu ko‘p ishla!

Balolarga, baxtsizlikka qal‘aday tur ustuvor...

Shoirning ko‘p hikmatlari taqdir deb qo‘l qovushtirib o‘tirmaslikka, balki baxt uchun kurashishga chaqiradi.

Shu tariqa, “Dostonlarda bilinadi shoirlarning a‘losi” degan Rustaveli o‘zining buyuk insonparvarlik g‘oyalari hamda dunyo, hayot va inson umrining ma‘nosi haqidagi muhim qarashlarini teran tafakkur qudrati va hassos qalb kechinmalariga



omuxta qilgan holda katta mahorat bilan o‘z asarida aks ettiradi. Asarning umrboqiyiligini ta’minlagan omil mana shunda.

Gruzin adabiyoti va uning namoyandalari, xususan, Shota Rustaveli hayoti va ijodi, “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonining tarjima va nashrlari bo‘yicha O‘zbekistonda ham qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Rahmatulla Inog‘omov buyuk mutafakkir shoir ijodini badiiy tarjima va o‘zaro ta’sir nuqtayi nazaridan o‘rganib, “Gruzin adabiyotining quyoshi” nomli risola yozgan [2] Sotti Husayn, Vohid Zohidov, Rahim Muqimov, Ergash Ochilov, Akram Uzoqov [9] kabi adabiyotshunoslar Shota Rustavelining hayoti, ijodi, “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonining tarjimalari yuzasidan maqollar e’lon qilganlar.

Ulug‘ gruzin shoiri tavalludining 750-yilligi munosabati bilan 1938-yili Toshkent shahrining markaziy ko‘chalaridan biriga Shota Rustaveli nomi berilgan. Respublikadagi ko‘plab maktablar ham Shota Rustaveli nomi bila ataladi.

Doston o‘zbek xalqi orasida mashhur bo‘lgan yillarda ko‘pchilik o‘g‘il bolalarga Aftondil ismi qo‘yilgan. Taniqli o‘zbek adabiyotshunos olimi, filologiya fanlari doktori, professor Aftondil Erkinov shular jumlasidandir. Olim otasi Sodirxon Erkinov sevimli jigarbandiga o‘zi maftuni bo‘lgan asar qahramonining nomini qo‘ygan edi.

Shunday qilib, sharqona ruhning ustuvorligi jihatidan o‘zbeklarning didi va ko‘ngliga yaqinligi, zabardast gruzin so‘z san’atkori va o‘zbek shoirlari adabiy merosida mushtarak nuqtalarning mavjudligi, yangidan-angi tarjimalarining paydo bo‘layotgani, qayta-qayta nashr qilinayotgani, mutafakkir adib hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilayotgani, ko‘chalar va maktablarga nomining berilayotgani, asar qahramonlari nomlarining muhabbat yuzasidan bolalarga qo‘yilayotgani Shota Rustaveli va uning “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostonining o‘zbek xalqi orasida ham nihoyatda mashhurligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Барамидзе А. Шота Руставели. – Москва: “Знание”, 1966. 112 - с.
2. Иноғомов Р. Грузин адабиётининг қуёши. – Тошкент, 1966. – 96 б.
3. Навоий А. Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 6-жилд. – Тошкент: Ф.Ғулум номидаги НМИУ, 2011. – 808 б.
4. Навоий А. Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 7-жилд. – Тошкент: Ф.Ғулум номидаги НМИУ, 2011. – 696 б.
5. Руставели Ш. Йўлбарс терисини ёпинган паҳлавон. – Тошкент, 1959. – 364 б.
6. Руставели Ш. Йўлбарс терисини ёпинган паҳлавон. – Тошкент, 2013. – 184 б.
7. Руставели // Ўзбекистон миллий энциклопедияси, XII жилдлик, 7-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2004. – Б. 393.
8. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: “Фан”, 1966. – 386 б.
9. Узоқов А. Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги халқлари адабиёти. – Тошкент, 2007. – 144 б.

“FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

respublika ilmiy-amaliy konferensiya



10. Фулом Ғ. Мукамал асарлар тўплами, XII жилдлик, 9-жилд (Таржималар). – Тошкент: “Фан”, 1988. – 788 б.
11. Хусайн С. Руставели таржимаси ҳақида // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 1938, 4-сон.

